SIRDARYO VILOYATI OQOLTIN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 9-sentabr | 234-9-122-Q/24 | Oqoltin tumani hokimligi

Oqoltin tumani hududida xalqaro ahamyatdagi A-373 hamda M-39 avtomobil yo‘llarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Oqoltin tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Oqoltin tuman hududida xalqaro ahamyatdagi A-373 hamda M-39 avtomobil yo‘llarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Oqoltin tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i X.Djavlonov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori S.Abbazovga tuman hududida xalqaro ahamyatdagi A-373 hamda M-39 avtomobil yo‘llarida va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni tuman hokimini o‘rinbosari A.Baratbayev zimmasiga yulatilsin.

Tuman hokimi **K.Ernazarov**

Oqoltin tuman hokimining
2024-yil 9-sentabrdagi
234-9-122-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida xalqaro ahamyatdagi A-373 hamda M-39 avtomobil yo‘llarida va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	M-39 “Toshkent-Termiz” avtomabil yo‘lining ikkala tomoniga 918+600 km ga 3.27 (to‘xtash taqiqlangan) 2 dona, 7.2 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona va 7.2.4 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona yo‘l belgisi, 918+800 km ga 3.27 (to‘xtash taqiqlangan) 2 dona, 7.2 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona va 7.2.4 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona yo‘l belgilarini o‘rnatilsin. ushbu yo‘lning 923+500,926+200 km ga avtomabillar qayrilib olish joyida yo‘l transport xodisalarini ko‘payganligi sababli 923+500,926+200 km avtomobillar qayrilib olish joyi berkitilsin. 4P-31 “Yangiyer-Do‘stlik avtomabil yo‘lining 35-63 km oralig‘ida va 4P-35 Jizzax Sh-Paxtakor, Do‘tlik Sh-Gagarin Sh M-39 a/yo‘li 918-km” avtomabil yo‘lining 83-97 km oralig‘ida avtomabillar harakatlanish tezligini 70 km/soatga tushurilsin.	1)3.27 (to‘xtash taqiqlangan) 2 dona 2) 7.2 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona 3) 7.2.4 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona 4) 918+800 km ga 3.27 (to‘xtash taqiqlangan) 2 dona 5) 7.2 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona 6) 7.2.4 (Ta’sir oralig‘i) 2-dona